



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

THE ROLE OF INNOVATIVE BANKING SERVICES AND THEIR IMPACT ON BANKING INCOME

Berdiboev Oltinboy Abdiboqi ugli

*Senior Lecturer (PhD) of the Department of Economics in ICT at TUIT
named after Muhammad al-Khwarizmi*

berdiboyevoltinboy@gmail.com

Abstract. The introduction of modern services in commercial banks was analyzed based on the experience of developed countries and scientific research, and it was determined that innovative banking services are an important factor in increasing the net profit of banks. The widespread introduction of digital services contributes to the efficiency, competitiveness, and increase in the number of clients of banks.

Keywords: *cybersecurity, software, data privacy, special programs, technological risks, mobile applications.*

INNOVATION BANK XIZMATLARINING ROLI VA ULARNING BANK DAROMADLARIGA TA’SIRI

Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o‘g‘li

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU AKT sohasida iqtisodiyot kafedrasida katta
o‘qituvchisi (PhD)*

berdiboyevoltinboy@gmail.com

Annotatsiya. Tijorat banklarida zamonaviy xizmatlarni joriy etish, rivojlangan davlatlar tajribasi va ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinib, innovatsion bank xizmatlari banklarning sof foydasini oshirishda muhim omil ekani aniqlandi. Raqamli xizmatlarni keng joriy etish banklar samaradorligi, raqobatbardoshligi va mijozlar sonining ortishiga xizmat qiladi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Kalit so‘zlar. *kiberxavfsizlik, dasturiy ta‘minot, ma‘lumotlar maxfiyligi, maxsus dasturlar, texnologik risklar, mobil ilovalar.*

Kirish. Bank xizmatlari iste‘molchilarining sifatli va yuqori texnologik xizmatlarga bo‘lgan talabi tobora ortib bormoqda. Bu esa tijorat banklari oldiga yangi xizmatlarni joriy etish, mavjudlarini takomillashtirish hamda innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish vazifasini qo‘ymoqda.

Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlarni keng aholi qatlamiga yetkazish va to‘lov tizimlarini rivojlantirish maqsadida bank xizmatlarini raqamlashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayon bank xizmatlari iste‘molchilari uchun maksimal qulaylik yaratish, xizmatlar sifatini oshirish va bank operatsiyalarining shaffofligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bunday o‘zgarishlar global va mahalliy miqyosda moliyaviy tranzaksiyalar hajmi va sonining oshishiga, to‘lovlarning tezlashishiga, investitsion faollik va savdo aylanmasining kengayishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda bank operatsiyalarini, xususan to‘lovlarni mobil qurilmalar orqali qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkoniyati mavjud bo‘lsada, bu hali rivojlanishning eng yuqori nuqtasi emas. Kelajakda bank sohasi yanada ilg‘or bosqichlarga chiqishi kutilmoqda. Umuman olganda, innovatsion faoliyat iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili bo‘lib, O‘zbekiston ham, ayniqsa bank tizimida, ushbu yo‘nalishga katta e‘tibor qaratmoqda. Raqamli transformatsiya banklar uchun daromadlilikni oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilashda keng imkoniyatlar yaratdi. Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan mamlakatni izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha strategik vazifalar belgilab berildi. Innovatsion faoliyatning rivojlanishi har bir davlat iqtisodiy taraqqiyotida muhim



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda izchil qadamlar qo‘yib, ayniqsa bank sohasida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi, mamlakatning turli sohalarini, shu jumladan, Bank tizimini ham modernizatsiya qilish va yanada rivojlantirish masalalarini o‘z ichiga olgan beshta ustuvor yo‘nalishni belgilab beradi. Ushbu strategiya doirasida bank sektori bo‘yicha ham bir qancha maqsadlar qo‘yilgan. Bu borada quyida keltirilgan ma‘lumotlarni nazarda tutish taklif etiladi:

- aholiga muayyan vaqt davomida belgilangan limit doirasida bank mablag‘lari hisobidan tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi kredit kartalarini muomalaga kiritish;

- bank plastik kartalari orqali jismoniy shaxslarning depozit hisob raqamlarini boshqarish imkoniyatini kengaytirish;

- bank plastik kartalari orqali hisob raqamlarga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlaridan («SMS-banking», «Internet-banking», «Mobil-banking») foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- plastik kartadagi mablag‘larni boshqa kartaga o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun tariflarni kamaytirish;

- to‘lov terminallaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi miqdorini ikki martaga qisqartirish;

- valyuta va soliq nazoratini soddalashtirishni o‘z ichiga olgan elektron tijoratni rivojlantirishni rag‘batlantirish, plastik kartalar bo‘yicha o‘zaro hisob-kitob qilish tizimida olinmagan tovar va foydalanilmagan xizmat uchun to‘lovni qaytarishni tartib-taomillari va texnologiyalarini joriy etish” (Harakatlar strategiyasi, 2017).

“O‘z navbatida 2021 yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”da banklarda ichki biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali inson resurslaridan samarali foydalanib, xodimlarni asosan mijozbay ishlashga yo‘naltirish muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi” (PF-6155, 2021).

Bunda:

- banklarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda xalqaro umum e‘tirof etilgan standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimini joriy etish;

- banklarning axborot texnologiyalar infratuzilmasini takomillashtirish; - moliyaviy texnologiyalar asosida yangi raqamlashtirilgan bank xizmatlarini joriy qilish;

- mijozlarga zamonaviy standartlar asosida xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan alohida o‘qish va seminarlar tashkil etish” nazarda tutilgan.

Mazkur vazifalar rivojlanish ustuvorliklarini aniq belgilash, maqsad va vazifalarni tizimli amalga oshirish hamda bank tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda mavzu doirasida o‘tkazilgan tadqiqot natijasida masofaviy bank xizmatlarini joriy qilishda e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan quyidagi umumiy muammolar mavjud:

- kiberxavfsizlik;
- dasturiy ta‘minot uchun kata mablag‘ talab qilinishi;
- ma‘lumotlar maxfiylikini saqlashga ketadigan sarhlarning yuqoriligi;
- maxsus dasturlarni ishga tushirish va ishlatishda malakali mutaxassislariga talabning ortishi;
- texnologik risklarning mavjudligi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

- molbil ilovalardan foydalanish kengayishi oqibatida banklar mijozlarni tanlay boshlaydilar va ko‘p hollarda arzimagan sabablar bilan mijozlarga kredit ajratishni rad etishi oqibatida iqtisodiyotga kamroq likvidlik yo‘naltiriladi.

Innovatsion bank xizmatlari joriy etish jarayonida, banklar iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish asosiy e‘tiborni qaratishlari lozimdir. Ayniqsa, bank kartalaridan firibgarlik yo‘li bilan mablag‘larni yechilishi holatlariga qarshi keskin choralar qo‘llanilishi kerak. Bu bank mijozlarining banklarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash bilan bir qatorda banklar uchun mijozlar sonini ko‘paytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Yangi masofaviy bank xizmatlarini joriy qilish ma’lum bir ichki va tashqi omillarga, xususan makroiqtisodiy, me’yoriy-huquqiy, moliyaviy, inson resurslari, texnologik risklariga bog‘liqligi sababli, ushbu bank xizmatlarni taklif qilishdan oldin yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni oldindan baholash hamda risklarni bartaraf eta olishning yo‘llari va muddatlarini aniq prognoz qilish lozim bo‘ladi.

Xulosa. Tijorat banklari uchun yangi xizmat va mahsulotlarni ishlab chiqishda ularning mijoz ehtiyojlarini to‘liq qondirishi, yuqori sifatga ega bo‘lishi va bank daromadlilikini oshirishga xizmat qilishi muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu xizmatlar bankning umumiy rivojlanish strategiyasiga mos bo‘lishi lozim. Raqamli banklashuv sharoitida xizmatlarni integratsiyalash va mijozga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish banklar samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir.

Tahlillar natijalariga ko‘ra, infratuzilma va texnologik omillar — xususan, to‘lov terminallari, bankomatlar hamda tranzaksiyalar sonining ortishi banklarning sof foydasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq mijozlar sonining ko‘payishi har doim ham daromadning oshishiga olib kelmasligi aniqlangan. Bu esa banklar uchun nafaqat



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

mijozlar bazasini kengaytirish, balki xizmatlar samaradorligi va daromadlilikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PF-5953 (2020). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi “2017–2021- yillarga O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Ilm, Ma’rifat va Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5953-sonli Farmoni. 2
2. PF-6155 (2021). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155 sonli Farmoni.
3. Brett King (2019). Bank 4.0 Doimo siz bilan – hozir va shu yerda. Toshkent: “ILM-ZIYOZAKOVAT” MCHJ, - 464 b.
4. Fliginskix, T. N., & Tarasova, T. Yu. (2016). Faktori, opredelyayushie razvitie innovatsiy v vide novix bankovskix produktov. Kreativnaya ekonomika, 10(10), 1157-1168.
5. Korsunova, N. N. (2020). Neobank kak bank budushego v obslujivanii korporativnix klientov v usloviyax perexoda k sifrovoy ekonomike. Vestnik Akademii znaniy, (5 (40)), 175- 190.
6. Petrova, L. A., & Kuznesova, T. Ye. (2020). Sifrovizasiya bankovskoy sistemi: sifrovaya transformasiya sredi i biznes-prosessov. Finansoviy jurnal, 12(3), 91-101.
7. Polireddi, N. S. A. (2024). An effective role of artificial intelligence and machine learning in banking sector. Measurement: Sensors, 101135.
8. Tumin, V. M., Buxonova, S. M., & Krivsova, V. A. (2018). Vnedrenie innovatsionnix bankovskix produktov v deyatelnost' rossiyskix kommercheskix bankov. Vestnik Belgorodskogo gosudarstvennogo texnologicheskogo universiteta im. VG Shuxova, (8), 145-151.
9. Vasilenko, O. A. (2019). Tendensii i perspektivi razvitiya finansovix innovatsiy v bankovskom biznese Rossii. Mir novoy ekonomiki, (2), 80-89.